

I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida Qashqadaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 69 484,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2024- yilning yanvar-sentabr oylari bilan taqqoslaganda 0,5 % ga kamaydi.

YAHM deflyator indeksi 2024- yilning yanvar-sentabr oylari narxlariga nisbatan 111,0 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Qashqadaryo viloyatining qo'shgan hissasi 5,3 % ga yetdi.












2025- yilning yanvar-sentabr oylarida Qashqadaryo viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi





Yanvar-sentabr oylarida viloyat yalpi hududiy mahsulotining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi

	<i>Mrd. so'm</i>		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>	
	<i>2024- yil</i>	<i>2025- yil</i>		
	I. YAHM	59 230,1	69 484,6	105,7
	shu jumladan:			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	57 838,7	66 540,3	105,7
	Mahsulotlarga sof soliqlar	1 391,4	2 944,3	107,2
	II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	57 838,7	66 540,3	105,7
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	18 503,9	20 560,2	101,5
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	14 951,8	17 137,2	108,1
	sanoat	10 380,8	11 844,9	107,1
	qurilish	4 571,0	5 292,3	110,5
	Xizmatlar	24 383,0	28 842,9	107,3
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	8 459,3	10 084,6	109,3
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	3 127,6	3 955,5	113,6
	boshqa xizmat tarmoqlari	12 796,1	14 802,8	104,5

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 18 940,9 ming soʻmni tashkil etdi va bu koʻrsatkich oʻtgan yilga nisbatan 3,4 % ga yuqoridir.



Yanvar-senabrt oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va oʻsish surʼatlari













Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qoʻshilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 95,8 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 4,2 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligining YAHMning tarmoqlar boʻyicha tarkibidagi ulushi 30,9 % ni, sanoat tarmogʻi 17,8 % ni, qurilish 8,0 % ni va xizmatlar sohasi 43,3 % ni tashkil qildi.



**Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha YAHM tarkibi**
(jamiga nisbatan % da)

	2024- yil	2025- yil
 I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
 tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	97,7	95,8
 mahsulotlarga sof soliqlar	2,3	4,2
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
 qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	32,0	30,9
 sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	25,8	25,8
 sanoat	17,9	17,8
 qurilish	7,9	8,0
 xizmatlar	42,2	43,3
 savdo, yashash va ovqatlanish	14,6	15,2
 tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,4	5,9
 bo'yicha xizmatlar	22,2	22,2



Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiaga nisbatan % da)

2024- yil



2025- yil



● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHMning o‘shishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o‘shish sur‘atlari bilan bog‘liqdir. O‘shish sur‘atlari qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 101,5 % (YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi – 30,9 %), sanoatda – 107,1 % (17,8 %), qurilishda – 110,5 % (8,0 %), xizmatlar sohasida – 107,3 % ni (43,3 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o‘shish sur‘atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda 109,3 % (15,2 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 113,6 % (5,9 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 104,5 % dan (22,2 %) iborat bo‘ldi.



Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mutlaq o‘shish sur‘atlari
(o‘tgan yilga nisbatan % da)

2024- yil

2025- yil



6,2 %

YAHM

5,7 %



4,1 %

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

1,5 %



8,0 %

Sanoat

7,1 %



10,5 %

Qurilish

10,5 %



6,6 %

Xizmatlar


7,3 %

YAHM o‘shishiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘i – 0,5 f.p. (2024- yilning yanvar-sentabrida – 1,4 f.p.), sanoat tarmog‘i – 1,2 f.p. (2024- yilning yanvar-sentabrida – 1,3 f.p.), qurilish tarmog‘i – 0,8 f.p. (2024- yilning yanvar-sentabrida salbiy – 0,8 f.p.) va xizmatlar sohasi – 3,0 f.p. (2024- yilning yanvar-sentabrida – 2,5 f.p.) ijobiy hissa qo‘shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o‘shishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2024- yilning yanvar-sentabrida – 0,2 f.p.) ni tashkil etdi.




2025- yilning yanvar-sentabrida YAHM o‘shishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2025- yil yanvar-sentabr oyi uchun YAHM deflyatori indeksi 2024- yil yanvar-sentabr oylaridagi narxlarga nisbatan 111,0 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko‘rsatkichlari xizmatlar sohasida – 110,2 % va qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 109,5 % qayd etildi.



Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha deflyator indeksi
(o‘tgan yilga nisbatan % da)



2025- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik 46 483,3 mlrd. soʻmni tashkil etdi (2024- yilning yanvar-sentabr oylarida – 40 459,7 mlrd. soʻm). YAHMdagi ulushi 69,9 % ni (2024- yilning yanvar-sentabr oylarida – 70,0 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʻsishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bogʻliq.



Yanvar-sentabr oylarida kichik biznesning YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan % da)

Hajmi, mlrd. soʻm

Ulushi, % da

2024- yil

40 459,7

70,0 %

2025- yil

46 483,3

69,9 %



Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

Yalpi hududiy mahsulot (YAHM) – ma’lum bir davr mobaynida ma’muriy-hududiy tuzilishlarda joylashgan iqtisodiy rezident-birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalovchi milliy hisoblar tizimining asosiy ko‘rsatkichidir;

Yalpi ishlab chiqarish (YAICH) – hisobot davrida rezident-birliklarning ishlab chiqarish faoliyati natijasini ifodalovchi, ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning umumiy qiymatidir;

Aholi jon boshiga YAHM – muayyan davrda joriy narxlardagi YAIM (YAHM) hajmini mamlakat (hudud)ning o‘rtacha aholisi soniga bo‘lish orqali aniqlanadi.

Yalpi qo‘shilgan qiymat (YaQQ) – ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati (ishlab chiqarish) va ishlab chiqarish jarayonida to‘lalgicha iste’mol qilingan tovarlar va xizmatlar qiymati (oraliq iste’mol) o‘rtasidagi farq orqali aniqlanadi.

Mahsulotlar uchun soliqlar – tovar yoki xizmatning bir birligiga, ya’ni rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda solinadigan soliqlar. Ularga qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksizlar, eksport va import uchun soliqlar va boshqalar kiradi.

Mahsulotlar uchun subsidiyalar – davlat byudjetidan tovarlar yoki xizmatlarning bir birligiga, ya’ni rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda to‘lanadigan mablag‘lar (subsidiyalar).

Mahsulotlar uchun sof soliqlar – mahsulotlar uchun soliqlardan mahsulotlar uchun subsidiyalarni ayirish orqali aniqlanadi.

YAHM fizik hajm indeksi – o‘tgan yilning shu davr narxlaridagi joriy davr YAHMni (doimiy narxlardagi YAHM yoki real YAHM) o‘tgan yilning shu davr amaldagi narxlaridagi YAHMga nisbati kabi hisoblanadi;

YAHM indeks-deflyatori – hudud iqtisodiyotida narxlarning o‘rtacha o‘zgarishini ifodalaydi va nominal YAHMning (amaldagi narxlardagi joriy davr YAHM) real YAHMga nisbatini tavsiflaydi.